

**AYRIM KO'MAKCHI FE'LLARNING O'ZBEK VA KOREYS
TILLARIDA QO'LLANILISHI: O'XSHASHLIK VA FARQLAR**

Musurmanova Jasmina Xolmurod qizi

*TDSHU, Sharq xalqlari tillari va adabiyoti instituti,
1-kurs koreys-ingliz 2-guruh talabasi*

[Tel: +998919626106](tel:+998919626106)

e-mail: musurmonovamahliyo622@gmail.com

Ilmiy rahbar: Samida Mustafayeva

*TDSHU Tarjimashunoslik,
tilshunoslik va xalqaro jurnalistika
oliy maktabi boshlig'i, DSc.*

Annotatsiya: Mazkur maqolada koreys tilidagi **보다, 주다, 가다, 놓다** va **오다** kabi yordamchi fe'llar hamda ularning o'zbek tilidagi muqobillari — **ko'rmoq, bermoq, bormoq, qo'ymoq** va **kelmoq** ko'makchi fe'llarining qo'llanishi va ma'nosi atroflicha yoritib beriladi. Shuningdek, maqolada koreys va o'zbek tillaridagi ayrim ko'makchi fe'llarning o'xshash va farqli jihatlari qiyosiy tahlil asosida ko'rib chiqiladi. Shu bilan birga, koreys va o'zbek tillari grammatikasidagi umumiy o'xshashliklarga ham qisqacha to'xtalib o'tiladi. Tadqiqot davomida ikki til grammatikasidagi umumiyliklar va farqlar yoritilib, o'zbek va koreys tillarida ko'makchi fe'llarning o'xshashliklari va o'ziga xos jihatlari aniqlanadi. Ushbu tahlil koreys va o'zbek tillari o'rtasidagi grammatik tipologik o'xshashliklarni ochib berishga xizmat qiladi va til o'rganuvchilar uchun amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: koreys tili, o'zbek tili, ko'makchi fe'l, yetakchi fe'l, tipologik, **보다, 주다, 가다, 놓다, 오다**, tilshunoslik, agglutinatив, morfosintaktik, semantik

1. Kirish

Zamonaviy tilshunoslikda tillararo grammatik qiyoslashlar nafaqat nazariy izlanishlar, balki amaliy til o'qitish, tarjima va madaniyatlararo kommunikatsiyani rivojlantirishda ham muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, koreys va o'zbek tillari kabi agglutinatив tillarning morfosintaktik tizimini tahlil qilish ularning grammatik

qurilishi va semantik xususiyatlarini chuqur anglashga xizmat qiladi.¹ Bu tillarning ko'makchi fe'llar orqali harakat va holat ifodalash usullari esa har bir til o'rganuvchida alohida qiziqish uyg'otadi. Mazkur maqolada koreys tilidagi 보다, 주다, 가다, 놓다, 오다 kabi yordamchi fe'llar va ularning o'zbek tilidagi muqobillari — ko'rmoq, bermoq, bormoq, qo'ymoq va kelmoq ko'makchi fe'llari — shakl va mazmun jihatidan qiyosiy o'rganiladi. O'zbek va koreys tillaridagi ko'rib chiqilayotgan ko'makchi fe'llar o'rtasidagi o'xshashlik va farqlar, shuningdek, har bir ko'makchi fe'lning yetakchi fe'ldan anglashilgan harakat va holatga qanday qo'shimcha ma'no yuklashi va vazifasi tahlil qilinadi. Bilamizki, har bir tilda ko'makchi fe'llar gap qurilishida va ma'no ifodalashda muhim o'rin tutadi. Xususan, koreys va o'zbek tillarida ko'makchi fe'llarning qo'llanilishi orqali harakatning davomiyligi, natijasi, rivojlanishi yoki yo'nalishi kabi turli ma'no nozikliklari ifodalanadi.

2. O'zbek va koreys tillarida ko'makchi fe'l tushunchasi

O'zbek tilida ravishdoshning -(i)b, -a//y shakllariga qo'shib, o'z mustaqil ma'nolarini yo'qotgan, yetakchi fe'ldan anglashilgan harakat va holatning bosqichlari (boshlanishi, davom etishi, tugallanishi) va tarzi (tezligi, imkoniyat mavjudligi) ni bildirgan ayrim fe'llar ko'makchi fe'llar hisoblanadi. Tilshunos olim Shavkat Rahmatullayev o'zbek tilida yigirmadan ortiq ko'makchi fe'l mavjudligini aytib o'tgan. Ko'makchi fe'l alohida birlik, ya'ni grammatik birlik sifatida ajralib chiqqan bo'lsa ham, o'zidan oldingi asosga xuddi mustaqil fe'l kabi ravishdosh yasovchi orqali qo'shiladi; ana shu nuqtada uning leksik tabiati saqlanadi, shu xususiyatiga ko'ra leksik tabiatli morfema deyiladi².

Koreys tilidagi yordamchi fe'llar ham aynan o'zbek tilidagi ko'makchilar kabi birinchi qismdagi fe'lda ifodalangan harakat va holatga qo'shimcha va yordamchi ma'no yuklaydi. Koreys tilida ko'makchi fe'llarning o'nga yaqin ma'noviy turi farqlangan (progressive, terminative, donatory, exploratory, iterative, retentive, desiderative, stative, negative, inability)³. Tilshunos olim D.A.Korpekaning "Koreys

¹ "O'zbek va koreys tillarini o'rganishning o'ziga xos lingvistik jihatlarini" // Aziza Aripova, Zarifa Ubaydullayeva // Central Asian Journal of Education and Innovation //2023, B-25

² Rahmatullayev, Sh. "Hozirgi adabiy o'zbek tili". Toshkent: Universitet, 2006 B-200

³ Ihm, Ho Bin; Hong, Kyung Pyo; Chang, Suk In. Korean Grammar for International Learners. Yonsei University Press, 2010. B-339

tilining grammatikasi" kitobida ko'makchilar 후치사 deb nomlangan va o'zbek tilidagi ko'makchilar bilan deyarli bir xil izohlagan.

3. 보다 va ko'rmoq

3.1. Ta'rifi: Koreys tilida 보다 yordamchi fe'li 아/어 grammatik shakli bilan kelib bir butun grammatik strukturani hosil qiladi va harakatni tajriba, sinash, birinchi marta bajarish ma'nosida qo'llanadi. O'zbek tilida ham ko'rmoq ko'makchisi ravishdoshning -(i)b shakli bilan birikib, aynan shunday ma'nolarda ishlatilishini ko'rish mumkin.

3.2. Vazifasi: Yetakchi fe'lda ifodalangan harakatni birinchi marta bajarish: sinab ko'rish va tavsiya (bir marta qilib ko'r) kabi qo'shimcha ma'no yuklaydi.

3.3. Koreys tilidagi misollar:

이 책을 한번 읽어 보세요. (Bu kitobni bir marta o'qib ko'ring.) Ushbu gapda 보다 fe'li tavsiya ma'nosida qo'llangan.

저는 불고기를 먹어 봤어요. (Men pulgogini yeb ko'rganman.) Ushbu gapda 보다 fe'li sinab ko'rish ma'nosida qo'llangan.

이 바지를 한번 입어 보세요. (Bu shimni bir kiyib ko'ring) Ushbu gapda 보다 fe'li sinab ko'rish ma'nosida qo'llangan.

저는 한국에 가봤어요 (Men Koreyaga borib ko'rganman) Bu gapda esa 보다 fe'li tajriba ma'nosida qo'llangan

3.4. O'zbek tilidagi muqobili va misollar:

Bu ovqatni bir marta tayyorlab ko'r. (Maslahat)

Men kulolchilik bilan shug'ullanib ko'rdim. (Ish-harakatni sinab ko'rish)

Bu ko'ylakni bir kiyib ko'ring (Sinab ko'rish ma'nosida)

Men Amerikaga borib ko'rganman (Hayotiy tajriba ma'nosida)

3.5. O'xshashlik va farqlarning tahlili:

O'xshashlik: Har ikki tilda bu shakl tajriba va sinash ma'nosida. Shuningdek, har ikki tilda ham ba'zan tavsiya qilish ma'nosida qo'llanadi.

Farq: Koreys va o'zbek tillaridagi ko'rmoq ko'makchi fe'lining ishlatilishi deyarli bir xil bo'lsa-da, ayrim ma'no nozikliklaridagi farqlar mavjud. Xususan, koreys tilida o'zbek tilidagidan ko'ra kuchliroq ma'no ifodalanadi.

4. 주다 va bermoq

4.1. Ta'rifi: Koreys tilida 주다 yordamchi fe'li 아/어 grammatik shakli bilan birikib, harakatni boshqaga yordam tariqasida bajarish, biror ishni kimgadir foyda keltirish, umuman olganda, o'zi uchun emas, o'zga uchun bajarish ma'nosini bildiradi. O'zbek tilida ham bermoq ko'makchisi ravishdoshning -(i)b shakli bilan birikib, deyarli shunday ma'nolarda ishlatilishini ko'rish mumkin.

4.2. Vazifasi: Harakatni qabul qiluvchiga yo'naltirish (beneficiary). Shuningdek, muloyimlik va odob ohangi bilan iltimos yoki tavsiya bildirish.

4.3. Koreys tilidagi misollar:

사진을 찍어 줬어요. (Rasm tushirib berdim.) Ushbu gapda 주다 ko'makchi fe'li ish-harakatni boshqa shaxs uchun bajarilganini ifodalamoqda.

문을 열어 주세요. (Eshikni ochib bering.) Ushbu gapda va quyidagi ikki gapda ham 주다 ko'makchi fe'li asosiy fe'lda ifodalangan ish-harakatni bajaruvchining o'zi uchun emas, o'zga uchun bajarilishi ma'nosi bilan birga muloyim iltimos qilish ma'nolarini ham ifodalab kelgan.

그 아이를 도와 주세요. (U bolaga yordam bering.)

이 편지를 전해 줘요. (Bu xatni yetkazib bering.)

4.4. O'zbek tilidagi muqobili va misollar:

Kechki ovqatni tayyorlab berdim) (O'zga uchun bajarilgan ish-harakat)

Eshikni ochib bering. (Iltimos)

Yuklarimni ko'tarishga yordam bering. (Iltimos)

Jo'natmani yetkazib bering. (Iltimos)

4.5. O'xshashlik va farqlarning tahlili:

O'xshashlik: Har ikki tilda harakat boshqa kishi foydasiga bajariladi.

Farq: Koreys tilida 주다 daraja (muloyimlik) ohangini kuchaytiradi, ya'ni 문을 열어요 (Eshikni oching) gapidan ko'ra 문을 열어 주세요 (Eshikni ochib bering) gapida fikr muloyimroq ifodalangan, o'zbek tilida esa bu asosan ohang orqali bildiriladi.

5. 가다 va bermoq

5.1. Ta'rifi: Koreys tilida 가다 yordamchi fe'li 아/어 shakli bilan qo'shilib, harakatni hozir boshlab, kelajakda davom etishini yoki bir yo'nalishda rivojlanishini bildiradi. O'zbek tilida esa bermoq ko'makchisi ko'pincha davomiylikni va ba'zida yo'l-yo'lakay bajarilgan ish harakatini ifodalaydi.

5.2. Vazifasi: Harakat zamon bo'yicha kelajak yo'nalishda rivojlanadi; davomiylilik va jarayonni ko'rsatadi.

5.3. Koreys tilidagi misollar:

공부해 가겠습니다. (O'qib boraman.) Ushbu gapda 가다 yordamchi fe'li orqali ish-harakatning kelajakda davom etishi ifodalangan.

상황이 나빠져 가고 있어요. (Vaziyat yomonlashib boryapti.) Bu va quyidagi ikkala gapda ham 가다 yordamchi fe'li harakat-holatning bir yo'nalishda rivojlanishini bildirmoqda.

날씨가 추워져 가네요. (Havo asta-sekin soviyapti.)

물가가 올라 가고 있어요. (Narxlar oshib boryapti.)

5.4. O'zbek tilidagi muqobili va misollar:

O'qishni davom ettirib boryapman.

Ahvoli yaxshilanib boryapti.

Bahor kelib, tabiat yasharib boryapti. Ushbu uchala gapda ham bormoq yordamchi fe'li davomiylilikni ifodalagan.

Qo'shiq eshitib boryapman. Bu gapda esa bormoq yordamchi fe'li yo'l-yo'lakay bajarilgan ish harakatini ifodalagan.

5.5. O'xshashlik va farqlarning tahlili:

O'xshashlik: Ikkala tilda ham harakat kelajak tomonga davom etadi.

Farq: Koreys tilida 가다 harakatni fizik yoki vaqt bo'yicha yo'nalishni bildiradi, o'zbek tilida bormoq davomiylikka urg'u beradi.

6. 오다 va kelmoq

6.1. Ta'rifi: Koreys tilida 오다 yordamchi fe'li 아/어 shakli bilan birikib, harakat o'tmishda boshlangan va hozirgacha davom etayotgan holatni bildiradi. Koreys tilida kelmoq fe'li ko'makchi fe'l bo'lib kelganda ham uning atash ma'nosi deyarli saqlanib qoladi. O'zbek tilida esa kelmoq ko'makchi fe'li harakat o'tmishda boshlanib hozirgacha davom etayotganini bildiradi.

6.2. Vazifasi: Harakatning davomiyligi va natijaviyligini ko'rsatadi. O'tmishdan hozirgacha davom etib kelayotgan jarayonni ifodalayadi.

6.3. Koreys tilidagi misollar: 공부해 왔어요. (O'qib kelganman.) Ushbu gapda 오다 fe'li yordamchi fe'l hisoblansa ham deyarli o'z atash ma'nosini saqlab qolgan,

ya'ni o'qigan va kelgan. Quyidagi gaplarda ham 오다 fe'li xuddi shunday vazifani bajargan

과자를 사 올 거예요. (Shirinlik sotib olib kelaman.) (Shirinlik sotib oladi va keladi)

제가 음식을 준비해 왔어요.

(Men ovqat tayyorlab keldim.) (Ovqat tayyorlagan va kelgan)

우리는 계속 만나 왔어요.

(Biz doim uchrashib kelganmiz.) Ushbu gapda harakat davomiyligi ifodalangan. Bu ifoda nafaqat 오다 fe'li, balki davom etish, uzluksizlik ma'nolarini anglatuvchi 계속 so'zi yordamida yuzaga chiqmoqda.

6.4. O'zbek tilidagi muqobili va misollar:

Men 6 oydan buyon davolanib kelaman.

Doim harakat qilib kelganman.

Biz doim maslahatlashib kelganmiz.

Muammoni hal qilib kelganmiz. Yuqoridagi barcha gaplarda kelmoq ko'makchi fe'li harakatning umumiy davomiyligini anglatgan.

6.5. O'xshashlik va farqlarning tahlili:

O'xshashlik: Harakat o'tmishdan hozirgacha davom etganini ko'rsatadi.

Farq: Koreys tilida 오다 subyektga yaqinlashgan harakat (kelish) ma'nosida, o'zbek tilida esa umumiy davomiylikni bildiradi. O'zbek tilida kelmoq ko'makchi fe'lining atash ma'nosi koreys tilidagidan ko'ra ancha kuchsiz. Masalan, "U 6 oydan buyon davolanib keladi" gapida u 6 oydan buyon davolanadi, lekin kelmaydi.

7. 놓다 va qo'ymoq

7.1. Ta'rifi: Koreys tilida 놓다 yordamchi fe'li 아/어 shakli bilan birikib, bajarilgan harakatning natijasi hozirgacha saqlanib qolganini bildiradi. O'zbek tilidagi qo'ymoq fe'li esa ko'makchi fe'l bo'lib kelganda ish harakati tugallangan va ba'zida natijasi ko'rinib turganligini ifodalaydi.

7.2. Vazifasi:

Harakat yakunlangan va uning natijasi mavjud.

Amaliy ma'no: bu natija keyinchalik foyda yoki qulaylik keltiradi

7.3. Koreys tilidagi misollar:

문을 열어 놓았어요. (Eshikni ochib qo'ydim.) Ushbu gapda va quyidagi barcha gaplarda ham **놓다** yordamchi fe'li 아/어 shakli bilan birikib, bajarilgan harakatning natijasi ko'rinib turganligini ifodalamoqda.

책을 펴 놓으세요. (Kitobni ochib qo'ying.)

컴퓨터를 켜 놓았어요. (Kompyuterni yoqib qo'ydim.)

밥을 해 놓았어요. (Ovqatni tayyorlab qo'ydim.)

7.4. O'zbek tilidagi muqobili va misollar:

Derazani ochib qo'ydim.

Kiyimlaringni taxlab qo'ydim.

Ertangi kun rejalarimni yozib qo'ydim.

Uylarni yig'ishtirib qo'y.

7.5. O'xshashlik va farqlarning tahlili:

O'xshashlik: Har ikki tilda ham harakatning natijasi hozirgacha mavjud va saqlanadi.

Farq: Koreys tilida **놓다** natijani alohida ta'kidlaydi, o'zbek tilida esa bu ma'no ba'zida ohang yoki kontekst orqali ko'rsatiladi.

8. Umumiy Xulosa

Xulosa qilib aytganda, koreys va o'zbek tillarida ko'makchi fe'llar grammatik jihatdan yaqin. Ya'ni yuqorida tahlili ko'rib chiqilgan fe'llarning bir o'rinda o'zining mustaqil ma'nosida qo'llanishi, boshqa o'rinda esa atash ma'nosini yo qisman, yo butunlay yo'qotgan holda ko'makchi fe'l bo'lib kelish holatlari ham ikki til uchun umumiy hodisa hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda, Har ikki tilda ko'makchi fe'llar yordamida harakatning bosqichlari, tarzi, shuningdek, tajriba, davomiylik, natija va yo'nalish ma'nolari ifodalanadi. Shunga qaramay, koreys tilida ma'no nozikliklari ko'proq va rasmiy hurmat shakllari bilan boyitilganligi bilan o'zbek tilidan farqlanadi. Bu taqqoslash ikki til o'rganuvchilari uchun nazariy va amaliy jihatdan foydalidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ihm, Ho Bin; Hong, Kyung Pyo; Chang, Suk In. Korean Grammar for International Learners. Yonsei University Press, 2010.
2. Hansol, H.B.Lee. Korean Grammar. OXFORD UNIVERSITY PRESS, 1989
3. G'ulomov, A; Rahmatullayev, Sh; Sodiqova M; Asqarova, M; Hojiyev, A; Fuzailov, S; Shoabdurahmonov, Sh; Qo'ng'irov, R. O'zbek tili grammatikasi 1-jild — O'zbekiston SSR: Fan, 1975
4. Muhiddinova, X; Xudayberganova, D; Umirov, I; Jiyanov, J; Yusupova, T. Hozirgi o'zbek adabiy tili — Toshkent: O'qituvchi, 2006
5. Rahmatullayev, Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili — Toshkent: Universitet, 2006